

**PSIXOLINGVISTIKADA MULOQOTNING AHAMIYATI.
(SHUHRATNING “OLTIN ZANGLAMAS” ROMANI QAHRAMONLARI
MULOQOTINING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI MISOLIDA)**

A.O. Otaqulova

Sharof Rashidov nomidagi Samarcand davlat universiteti lingvistika
(o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligining zamonaviy sohalaridan birlapsixolinguistikating o‘rganilishi va psixolinguistikada muloqotning ahamiyati borasida nazariy ma’lumotlar berilgan. Muloqotning psixolinguistik mohiyatiyozuvchi Shuhratning “Oltin zanglamas” romani qahramonlari misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: psixolinguistica, aspekt, adresant, adresat, nutqiy faoliyat, muloqot, psixologik mexanizm, kognitiv psixologiya, xulq - atvor, idrok qilish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены теоретические сведения об одной из современных отраслей узбекского языкоznания – изучении психолингвистики и значении общения в психолингвистике. Психолингвистическая сущность общения раскрывается на примере героев романа «Алтын Зангламас» писателя Шухрата.

Ключевые слова: психолингвистика, аспект, адресант, адресат, речевая деятельность, общение, психологический механизм, когнитивная психология, поведение, восприятие.

ABSTRACT

This article provides theoretical information about one of the modern branches of Uzbek linguistics - the study of psycholinguistics and the importance of communication in psycholinguistics. The psycholinguistic essence of communication is revealed by the example of the characters of the novel "Altin Zanglamas" by writer Shuhrat.

Key words: psycholinguistics, aspect, addressee, addressee, speech activity, communication, psychological mechanism, cognitive psychology, behavior, perception.

Globallashuv, axborot texnologiyalari asrida zamon bilan bir qatorda inson ongi, tafakkuri, ruhiyati va tilida ham yangiliklar, o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi. Har bir davr o‘z navbatida, har bir fan va soha uchun dolzarb muammo va vazifalarni yuklaydi, zaruriyat deb hisoblaydi. Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy ham o‘zining “Geodeziya” asarida grammatika, aruz va mantiq fanlari ehtiyojlar natijasi ekanligini keltiradi. Har qanday jamiyat rivoji, zamon o‘zgarishi va davr yangiligi, avvalo tilda aks etadi. Inson qaysi jamiyatda yashamasin fikrlaydi, aloqa qiladi. Bugungi jamiyatimiz talablaridan biri tilni inson bilan birlashtirish, tadqiq etishdir. Endilikda insonning jamiyatdagi o‘rni nafaqat uning jismoniy xatti-harakati bilan, balki nutqiy faoliyati, muloqoti, ongi va ruhiyati bilan ham belgihanishi tilshunoslikda psixolingvistika kabi sohaning maydonga kelishiga zamin hozirladi.

Ma’lumki, tilshunoslikning muhim masalalaridan biri tilni ma’no va mazmun uyg‘unligida tekshirish, tahlil qilishdir. Bu esa o‘z navnatida tilga kognitiv, funksional-stistik, sintaktik- semantik, pragmatik va psixologik yondashishni taqozo etadi. Ko‘ramizki, psixologiya va lingvistika birlashishidan paydo bo‘lgan psixolingvistika tilshunoslikning boshqa sohalari bilan uzviy bog‘langan. Psixolingvistika inson ongini tili vositasida va inson tilini ongi vositasida o‘rganadi. Psixolingvistika psixik jarayonlarning til bilan ajralmas tomonlariga e’tibor qaratadi hamda nutqiy faoliyatning psixik faoliyat mahsuli ekanligini tadqiq etadi.

Tilshunoslikda tilning tafakkur bilan bog‘liq vazifalari, dastlabki psixolingvistik qarashlar XIX asrdayoq ma’lum edi. Bu V.F. Gumbold nazariyasi va G.Paul, K. Brugman, A. Leskin kabilarning qarashlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Tilga qandaydir o‘lik mahsulot sifatida emas, balki ijodiy jarayon holida qarash lozim”¹ ligi tilning psixologik tabiatini ko‘rsatadi, ya’ni shaxs va olam munosabati til orqali amalgalashishini tasdiqlaydi. Ma’lumki, “Yosh grammatikachilar” nazariyalarida individual, alohida, o‘ziga xos psixologiya belgilari namoyon bo‘ladi. Ular tildagi o‘zgarishlar jamiyat bilan emas, alohida shaxs bilan bog‘liqligini inson ongi va ruhiyatidagi o‘zgarishlar orqali ko‘rsatishgan. Tilshunos olim Boduen de Kurtene til egasini jamiyatning bir qismi sifatida baholab, til shaxslar psixikasida ham ajralmasligini nazariy asoslagan va tilning mavjudligini psixologik qonuniyatlar mavjudligida deb hisoblagan. XX asr tilshunosligida psixolingvistik g‘oyalar F. De Sossyur va L.V. shcherbalarning nutqiy faoliyat haqidagi tadqiqotlarida ham aks etgan.

“Psixolingvistika” terminini ilk bor amerikalik psixolog N.Pronko 1946-yilda ilmiy muomalaga kiritgan. “Psixolingvistika” mustaqil fan sifatida 1953-yilda tilshunoslik olamiga kirib keldi. Shu yilda AQSHning Indiana universitetiga qarashli lingvistika va psixologiya qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan seminarda

¹ Фон Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию –М. 1984. –с.82.

“psixolingvistika” alohida fan sifatida e’lon qilindi. Bugungi kunda jahon tilshunosligida psixolingvistika sohasi haqida so‘z borganda, Ch.Osgud,Djon Kerroll, N.Xomskiy, J.Miller, J.Verch, R.Rummetfeyt, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A. L.Luriya, P.Galperin, N.I. Jinkin, I.A. Zimnaya kabi olimlarning xizmatlarini e’tirof etish o‘rinli bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida ham bu sohaga xos bir qator ilmiy ishlar bajarilgan bo‘lsada, hali chuqur tahlil qilingan psixolingvistik tadqiqotlarimiz yetarli emas. Keyingi yillarda bu sohaga qiziqish va talabning ortishi natijasida jiddiy ilmiy ish va tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Bu fanning yondosh sohalar bilan bog‘liq tomonlariga ham e’tibor qaratilib, til(nutq)birliklarining psixolingvistik aspekti chuqur o‘rganilmoqda. Bugungi kunda psixolingvistika sohasiga doir ishlar o‘zbek tilshunosligida S.Saidxonov, Sh.Safarov, M.Hakimov, S.Karimov, Sh.Iskandarova, D.O‘rinboyeva, S.Mo‘minov, M.Hakimov, A.Pardayev, Sh.Usmanova, M.Maxsudova, M.Shamsiyeva kabilarning tadqiqotlarida amalga oshirilganini ko‘ramiz.

Psixolingvistikaning asosiy tadqiqot markazida inson, shaxs turadi. Shaxs nutqiy faoliyati va muloqoti bu sohaning predmeti bo‘lib, nutqiy faoliyat nazariyasi inson, vaziyat va eksperiment omillar majmuasidir. Psixolingvist olim N.I Jinkin: “Agar lingvistika va psixologiya aniq tafakkur jarayonini tadqiq etishni rad etsa, ular juda katta yo‘qotishga, ya’ni inson va uning nutqi tushib qolgan yo‘qotishga uchraydi”, - degan edi. Ya’ni aniq tafakkur etish, ong va ruhiyat bilan bog‘liq holatlar nutqiy faoliyatda, muloqotda birlashgan tarzda sodir bo‘ladi. Inson psixikasi rivoji ummuminsoniy tajribani o‘zlashtirish ekanligi, bu jamiyat tarixi bilan bog‘ligi, inson ongiga xos belgilar ijtimoiy faoliyat jarayonidagina o‘zlashtirilishi borasidagi nazariyalarida rus psixolingvisti L.S. Vigotskiy asosli fikrlarni keltirgan.

Psixolingvistikaning muhim tushunchalaridan biri- muloqotdir. Muloqot so‘zi nutqiy faoliyat, kommunikatsiya kabi atamalar bilan sinonim sifatida ishlatalishi bizga sir emas. Muloqot psixolingvistik aspektda nihoyatda rang-barang, munozarali. Nutqiy faoliyat til vositasida amalga oshiriladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, so‘zlash va tushunish jarayonlarining yig‘indisidir. Muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan, o‘zaro hamkorlikdagi ehtiyoj sabab yuzaga keladigan faoliyat bo‘lib, subyektlarning o‘zaro aloqa qilish, ta’sir etish va amalga oshirish jarayonidir. “Kommunikatsiya- tirik va o‘lik tabiatdagi tizimlar o‘rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o‘rtasidagi signallar almashinushi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi - bularning barchasi kommunikatsiya. Muloqot esa faqat insonlar o‘rtasidagina amalga oshirilishi mumkin”.¹ Tilshunos olim S. Mo‘minov “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasida

¹Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi.-T, “ Turon-Iqbol”,2006.-b.5.

muloqot va lingvistik kommunikatsiya tushunchalarini sinonim sifatida qo'llaydi. Muloqot adresant, adresat va shu ikkisiga ta'sir etuvchi omillarni o'z ichiga olib, psixolingvistik mohiyat kasb etadi. Muloqotga kirashayotgan shaxslar nutqida ularning ruhi, ongi, psixikasi to'liq aks etadi. Kommunikator, albatta kommunikantga botiniy ta'sir o'tkazadi va bu ta'sir muloqotda til (nutq) birliklaridan yaqqol sezilib turadi. Muloqot tushunchasi keng qamrovga ega bo'lib, dialogik- monologik, yakka- umumiy, masofali- masofasiz, bevosita- bavosita kabi turlarga bo'linadi. Har qanday muloqot shaxslar tomonidan og'zaki yoki yozma tarzda olib boriladi. Og'zaki muloqotda erkinlik, so'z tejamkorligi va ohang ta'sirchanligi sezilsa, yozma muloqotda fikrni keng ifodalash, to'g'ri va batafsil yoritish imkoniyati kengroq bo'ladi. Og'zaki muloqot real, ayni nutqiy faoliyatda yuzaga keladi. Yozma muloqot adresant tomonidangina tashkil etilishi va adresat ayni nutqiy vaziyatda ishtirok etmasligi ham mumkin. Ammo nutqiy ta'sir etish, muloqot psixolingvistikasi har ikkisida ham muhim va yetakchi sanaladi. Shaxslarning yoshi, jinsi, millati, qiziqishi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeyi, nutqiy vaziyati, holati va payti muloqot psixolingvistikasi uchun asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardir.

Ma'lumki, har bir inson ruhiyati, tafakkurida mavhum, xayoliy adresat bo'lib, muloqot ichki, monologik tarzda kechadi. Kommunikatorning shaxs, subyektivlashgan predmet, xayol bilan muloqoti ham psixolingvistik aspektida sodir bo'ladi. Har qanday muloqotda shaxs mavjud bo'lib, shu shaxs ongi- tafakkuri, ruhiyat- psixologiyasi uning nutqida namoyon bo'ladi. S.Mo'minov o'z tadqiqot ishida adresant va adresatlar faoliyati fuksional farqlanishiga e'tibor qaratib, kompozitsion jihatdan farqlaydi: 1. Adresant faoliyati bosqichlari (salomlashuv, murojaat, tanishuv, daromad, muddao, xotima- xayrlashuv) va 2.Adresant faoliyati bosqichlari (tinglash , munosabat bildirish).¹

Muloqot ham tilshunoslik, ham psixologiyaning muhim predmetidir. Inson ruhiy olaming ko'pqirralilagini tili orqali kashf etish har ikki soha uchun ham bir xil maqsad sanaladi. Inson muloqoti orqali nafaqat unga xos ong, kechinma va tuyg'ular anglashiladi, balki u yashayotgan olam, muhit va jamiyat haqida taassurotlar uyg'onadi. Muloqot- psixolingvistik jarayondir va munosabat, ta'sir etish uning muhim tomonlaridir. Munosabat verbal- noverbal ifodalansa, ta'sir etish ohang va til birliklarini o'rnida qo'llash orqali amalga oshiriladi. M. Maxsudova ham o'z psixologik tadqiqotlarida kommunikatsiya, interaksiya va ijtimoiy persepsiya muloqotning asosiy elementlari deb ko'rsatadi. Bu tushunchalar bir- birini yuzaga chiqaruvchi bosqichlar bo'lib, aloqa bo'lsagina ishtirokchilar ta'sirlashadi, ta'sir esa,

¹Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari//Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent-2000.-b.51.

albatta idrok qilish va anglash natijasidir. I.A. Zimnaya muloqotni nutqiy faoliyat ekanligini aytib, uch bosqichdan, ya’ni qo‘zg‘atuvchi-motivatsion, yo‘naltiruvchi-tadqiqot va ijro bosqichlaridan tuzilganligini aytadi. Bu degani, nutqiy ehtiyoj, nutqiy niyat (maqsad) va amalga oshirish nutqiy faoliyatning asosiy etaplaridir.

Yozuvchilar o‘z asarlarida qahramonlarni salbiy yoki ijobiy, bosh va ikkinchi darajali deb ta’riflamasalar ham, kitobxon qahramonlar nutqi, muloqoti orqali bu “sir”dan voqif bo‘ladilar. Shunday obrazlar borki, asarni o‘qish davomida salbiy bo‘lib ko‘rinadi, unga nafrat tuyg‘usi asar oxirigacha bizni tark etmay turadi-yu, bitta gap, bitta jumla asar so‘nggida unga bo‘lgan munosabatimizni butunlay o‘zgartirib yuboradi. Muloqotning psixolingvistik roli, ayniqla, badiiy asarlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zero har qanday badiiy asar inson amaliy va ruhiy hayotining ko‘zgusidir. Har qanday badiiy asarda umumiyligi- ijtimoiy va o‘ziga xos-individual psixologik xususiyatlar yoritiladi. Asar qahramonlari ruhiyati, tafakkuri orqali muloqotni shakllantirish, shaxs va jamiyat muammosini shu orqali olib berish yozuvchining chinakam mahoratidir.

Yozuvchi Shuhratning “Oltin zanglamas” romani qahramonlari muloqot psixolingvistikasi nihoyatda rang-barang, haqqoniy va tabiiy tarzda ifodalangan bo‘lib, bu til birliklarida yaqqol sezilib turadi. Iboralar, maqollar va o‘xshatishlar muloqot ta’sir etish funksiyasini bajargan, muloqot munosabati esa lisoniy, ba’zan aralash (nolisoniy qo‘shilgan) tarzda ishonarli ifodalangan. Qahramonlar nutqni idrok etishlari uchun ham muloqot vaziyatiga xos til birliklaridan mohirona foydalangan. Yozuvchi tilning pragmatik, psixologik imkoniyatlarini qahramonlar muloqoti orqali olib bergen.

“-Xoy, bolam, qulog‘ingda bo‘lsin: joy olsang, qo‘ni-qo‘shnisini surishtir. Qo‘shning tinch- sen tinch. Keyin men gaplashadigan qari- qartangi ham bo‘lsa yana yaxshi, -dedi u. Chamadonning qornidan kamar bog‘layotgan Sodiq onasiga qarab, tuzatdi:- Kvartir olsang deng. –Kvartir bo‘lsa, kvartir. U yoqlarda turadigan joyni kvartir deyishadimi-a, jon bolam?- Adolat xola kelini Jannatga murojaat etdi. U “ha, shunday” degandek bosh silkib qo‘ya qoldi”. [7:16] Muloqot ehtiyoji-ogohlantirish, muloqot maqsadi-yaxshi va ishonchli uy olish, ijro esa “kvatir bo‘lsa kvartir”, ya’ni onasi aytganday uy-joy ijaraga olishdir. Ushbu muloqotda verbal va noverbal munosabatni kuramiz: ona va o‘g‘il lisoniy munosabatga kirishgan bo‘lsa, kelini Jannatning bosh silkib qo‘ishi nolisoniy munosabat sanaladi. Oddiy bo‘lib tuyulgan ushbu kichik muloqot orqali Jannat xolaning yoshi, soddaligi, o‘g‘lining xarakteri, kelinining holatigacha bilib olish mumkin. O‘zbek xalqiga xos xususiyat: qo‘ni-qo‘shnichilik munosabati ushbu muloqotda keksa ayol psixologiyasini olib berishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Chunki uning hayotiy tajribalaridan ma’lumki, “Qo‘shning tinch- sen tinch”. Kelini Jannatning gapishtini ham istamay

shunchaki tasdiqlovchi bosh silkishi ham bejiz emas, uning ko'ngli g'ash, u shaharga ketishdan xursand emas.

Ilmiy mudir va Mirsalimning muloqotiga e'tibor qaratsak:

“-Yaxshi qizi bor. Bu yil o'ninchini bitirib ketdi. Qarqinoqdan bulbul chiqqan. O‘g‘lingiz bormi?

—O‘glim yo‘g‘-u ukam bor, - hazilga hazil bilan javob qildi Sodiq. – Bahorda armiyadan kelgan.

-Niyatingiz bo‘lsa, otingizni qamchilang, to‘g‘risi otni ukangiz qamchilasin. – Nega ukam? – Sovchi bilan er qiladigan qiz emas”. [7:21] Bu muloqot orqali ilmiy mudirning aqli, odamlarni ajrata oladigan xususiyatini ko‘rish bilan bir qatorda fe’l-atvordinagi hazilkashlikni ham sezish qiyin emas. Gap Aziza haqida ketyotgan bo‘lsa-da otasining fe’l- atvori ham “qarqinoqdan bulbul chiqqan” deyish orqali ko‘zdan qochirilgani yo‘q. Sovchi bilan er qilmaydigan qiz deb dunyoqarashi keng, o‘qimishli va shaxsiy fikrli qizni nazarda tutadi. Ushbu muloqot maqsadi yaxshi qizni boy bermaslik, muloqot munosabati esa o‘xhatish san’ati orqali ta’sirchan ifodalangan: qarqinoq- Mirsalim, bulbul-Aziza. Bu muloqotda ilmiy mudirning Sodiqqa nisbatan yashirin munosabatini ham ko‘ramiz. Azizaga sizday dunyoqarashi keng odamning ukasi mos deyilmoqda. Mirsalim va Sodiq muloqotiga diqqat qarataylik:

“nimadan dars beradi?

– Sobiraxonning maktabida kutubxonachi. Boodob juvon deyishadi!

– Juvon bo‘lsa, er qilgan ekan-da!- kutilmaganda chapani hazil qildi Sodiq.

- Shu yoshgacha er qilmay o‘ldimi! Yigirma beshlarga borib qolgandir”. [7:49]

Bu muloqotdan ma'lumki, suhbatdoshlar tanish, ikkisining muloqot maqsadi ham ikki xil. Bu muloqotda ko‘proq Mirsalimning ichki maqsadi yashirin tarzda ifodalangan. Inson muloqotida beixtiyor o‘zini fosh etib qo‘yadi, “men” ixtiyorsiz holda namoyon bo‘ladi. Mirsalimning Musharrafni ta’riflashidan bilamizki, u bu ayol bilan uning juvon ekanligini biladigan darajada tanish. Buni sezdirib qo‘yganidan asabiylashgan holati “shu yoshgacha er qilmay o‘ldimi!” gapi orqali ochib beriladi.

“-Nima etagingda menga og‘il olib kelmoqchimisan?-Hamma ko‘chada yurganlar etagida bola olib kelyaptimi? uyaling! -Olib kelayotgan bo‘lsa, sen qayoqdan bilasan?

-Bilaman: ko‘zim ko‘r, qulog‘im kar emas. Bino qo‘yganingizning bittasi mulla Normat edi. Xotini farishta, ko‘cha betini ko‘rmaydi, to‘pig‘idan yuqorisini ovrat tutibjiyakli ishton kiyadi, derdingiz. Oxiri nima bo‘lib chiqdi. Yaxshi ko‘rgan yigit bilan qochib ketdi. Ha, aytganday, qilichday o‘g‘il tug‘ib olibdi”. [7:56] Mirsalim va xotinining ushbu muloqotidan ko‘rinadiki, ularning ongi, fikrlashi ikki xil. Davr bilan qadam tashlashni istaydigan ayolning yo‘li ham, dili ham to‘g‘ri bo‘lishini “oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich” maqoli orqali yaxshi bilamiz. Mirsalim uchun ayol kishi bola tug‘ish uchun, bir necha onlik nafsni qondirish uchun kerak, xolos. Mirsalim

ayolning o‘qishi va ishlashi jamiyatdagi o‘rnini topishi uchun muhimligini juda yaxshi biladi, shunchaki “eskilik tarafdarlari”dan qo‘rqadi. Xotining paranjini tashlagani va savodsizlar kursini bitirgani ham uning manfaati uchun edi, chunki u o‘qituvchi, qolaversa, doim “qoziqning o‘rtasi bo‘lish kerak”ligiga amal qiladi. Ushbu muloqot qo‘zgatuvchisi Mirsalimning ayoliga ishonchsizligi bo‘lib, nutqni anglash psixologik mexanizmi shu bosqichda kuzatiladi. Muloqotdagi munosabat eri maqtagan ayolning teskari bo‘lib chiqishi orqali berilgan. Paranji yopingan hamma ayollar ham iymonli bo‘lavermasligi mulla Normatning xotini misolida keltirilishi muloqotning psixik funksiyasini ko‘rasatadi. Chunki yillar davomida eri maqtab, namuna qilib ko‘rsatib kelgan ayol buning aksi bo‘lib chiqdi. Mirsalimning xotini o‘sha ayol haqida gapirib, so‘nggida “qilichday o‘g‘il tug‘ibdi” emas, “ qilichday o‘g‘il tug‘ib olibdi” deyishi orqali qiz bo‘lsa ham shukr qil, qiz bo‘lsa ham o‘zingniki, halol nikohimizdan bo‘lgan, degan nasihatatomuz ishora seziladi.

“-Uyingizda o‘g‘lingiz bormi? –birdan so‘rab qoldi Jannatning bo‘ynidan quchoqlab turgan Marat. Xola Jannatni mushkul ahvoldan chiqardi:- sen-da o‘g‘illari. Ayangning sendan boshqa o‘g‘li yo‘q. Jannat ma’qullab bosh irg‘adi”.[7:247] Olimlarning isbotiga ko‘ra odamlar suhbat jarayonida o‘zları aytmoqchi bo‘lgan fikrning faqat 7 foizinigina so‘z orqali, 38 foizini ohang va 55 foizini imo-ishora orqali ifoda etadilar.Ushbu muloqot jarayonida Jannatning bosh irg‘ashi orqali, nafaqat farzandi yo‘qligini tasdiqlash, balki Sodiqdan boshqa hech kim hayotida bo‘lmanini, shu oilaga umrbod mehr qo‘yanini va Maratga haqiqiy onalik mehri tushganini ma’qullah ham aks etgan. Yana bir nolisoniy munosabatga diqqatimizni qarataylik: “Azizaning surishtirishlaridan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Musharraf Sodiqqa taqayotgan bolau aytgandan ko‘ra yosh, buning ustiga Azizaning qulog‘iga kirgan gaplar uning gumonini tasdiqlardi.Shunday bo‘lsa ham tanish doktorini iltimos qilib, unga Musharrafni ko‘rsatdi. Doktor ochiq aytib qo‘ya qoldi: - Bola ikki- ikki yarim oylik. Bu oshkora gap Musharrafni Aziza kutgandek shoshirib qo‘ymadi, ishshayib qo‘ya qoldi. Bu ishshayish Azizaning shunchalik nafratini qo‘zg‘adiki, haydab chiqarishiga sal qoldi”.[7:220] Bilamizki, ishshayish tishlarning oqini ko‘rsatib, tovushsiz iljayish bo‘lib, tirjaymoqqa nisbatan salbiy ma’nosи kuchli. Iljaymoq so‘zi esa jilmaymoq kabi neytral bo‘lsa-da, salbiy bo‘yoqqa ega. A. Hojiyevning “ O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da ishshaymoq so‘zi ovoz chiqarmay ko‘z, lab harakati bilan kulgi ifoda qilish, miyig‘ida kulish ma’nosida izohlangan. Musharrafning bu ishshayishida uning ruhiyati, tafakkuri-psixologiyasi ko‘rsatiladi. Musharrafning bu ishshayishi faqatgina o‘sha jarayonga emas, butun hayotiga ishshayib qarash edi. Birinchi tug‘ilgan go‘dagining taqdirini qilcha o‘ylab ko‘rmay “itdan bo‘lgan qurbanlikka yararmidi” qabilida ish tutib, o‘z bolasidan voz kechgan, faqat o‘zinigina o‘ylaydigan bu ayoldan ishshayishdan boshqa narsa kutib

ham bo‘lmasdi. Muloqot uchun shu birgina ishshayish Musharrafning xarakterini ochibgina qolmay, uning keyingi xatosiga sabab sifatida ham ko‘rsatilgan. Chunki beo‘y, or-nomussiz ayolning taqdiri dahshatli fofja bilan tugashi aniq edi.

“Oltin zanglamas” romanida soxta, ikkiyuzlamachi, xoin insonlarda insoniylik sifati bo‘lmasligi Dilovarxo‘ja va Mirsalim misolida ochib berilgan. Dilovarxo‘janing o‘lib ketgan onasiga nisbatan aytgan haqoratomuz gaplari va Mirsalimning o‘z foydasi yo‘lida qizidan foydalanishi fikrimizni isbotlaydi. Muloqotning xulq-atvor psixolinguistikasida ta’sir qiluvchi stimul, ta’sir qiluvchi qandaydir reaksiyadan tashqari aynan inson ruhiyatidagina bo‘ladigan individual ichki stimul ham yashiringan bo‘lib, shu nuqtai nazardan turli kishilarning reaksiyalari ham turlicha bo‘ladi. Bu ko‘pincha turli millat vakillarida kuzatiladi deyilsa-da, biz shu o‘rinda turli xulq- atvor vakillarida kuzatiladi degan fikrga qo‘shilamiz. Har qanday muloqot psixikdir va ko‘pincha so‘roq gaplar ham muloqotda psixik qo‘zg‘atuvchi vositasi ham bo‘lib keladi. Bir millat, turli xulq- atvor egalari –Sodiq bilan Dilovarxo‘janing muloqotiga e’tibor bering: “ -U tomonlarda ham bola-chaqa qilgandirsiz, albatta. - ha, qilganman. Xotin emas, cho‘chqa olganman. Yiliga ikki marta tug‘adimi-ey! Hamma yoqni churvaqa bostirib yubordi. Uyga kirgani yurak bezillaydi:vaqur- vaqur. “bas, bo‘ldi!”desam, xudo bersa nima qilaman, deydi”. [7:198] Ushbu muloqotda Sodiqning savoli Dilovarxo‘jada, Dilovarxo‘janing gaplari Sodiqda ichki stimulni yuzaga chiqaradi. Sodiqning uzoq yillar farzandga zor bo‘lganligi emas, undagi insoniy tuyg‘ularning ruhiyatida yetakchilik qilishi Suhbatdoshiga nafrat uyg‘otadi. Dilovarxo‘janing psixikasi esa ayollarni inson sifatida ko‘rmasligi, o‘z bolalariga hayvon sifatida munosabatda bo‘lishi orqali ochib berilgan. Shuningdek, mavhum adresat va adresant muloqoti Dilovarxo‘janing namoz o‘qish paytida ta’sirli ifoda etiladi. Allohga qilgan murojaatidan anglashiladiki, u islomni to‘g‘ri anglamagan, qo‘lidagi qurol singari undan faqatgina o‘z yovuz maqsadi yo‘lida foydalangan. Unda na insonlarga muhabbat bor, na dinga bo‘lgan e’tiqod. Parchadan anglashiladiki, u aslida o‘zi bilan o‘zi, ichidagi”men” bilan muloqot qiladi:

“ ...necha- necha qishloqqa o‘t qo‘yib, necha odamni tig‘ga torttirgan bo‘lsam, sening noming bilan, bayrog‘ing ostida qildim. Axir, o‘zing “mening ixtiyorimsiz bandamning badanidan bir dona mo‘yi tushmaydi” degansan. Demak, shularning hammasiga o‘zingning ijozating bo‘lgan, o‘zing buyurib turgansanu, men sodiq quling bajo keltirganman”. [7:382] Dilovarxo‘janing Mirsalim kabi qiz farzandga nisbatan bemehrligi yana bir muloqotda unga nisbatan nafrat uyg‘otadi: -bir qizcham bor edi. Hovuzga cho‘kib o‘lganini eshitgan edim. – fotihasiga bormaganmidingiz?- be! O‘lsa o‘libdi-da . Azamat o‘g‘il bolamidiki, uyimning chirog‘i desang. Qiz bola-qush. [7:198]

Romanda umuminsoniy va individual psixik xususiyatlar shu qadar ishonarli, tabiiy ochib berilganki, bunda frazeologizmlar, maqollar va o‘xshatishlar bilan birga tagma’no va pressupozitsiya ham muloqot ta’sirchanligini ta’minalashga xizmat qilgan: “Har xotinni g‘ar, har juvонни о‘ynash tutib o‘tirgan Musharraf o‘smadan qora ayyor qoshlarini chimirib bijg‘idi: -Mehmon qilgan boyvuchcha osh damlab bermadimi? Bir ochga, bir kasalga tegma deganidek, Sodiqning zardasi qaynadi, titrab turib achitdi: -mening quchog‘imdan chiqib borguncha tagiga olib ketibdi, yeysolmadik.[7:121] Muloqotda vaziyat muhim omil sanaladi, o‘z o‘rnida aytilgan so‘zgina muloqot ishtirokchisiga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muloqotda erkak kishining och holati uning psixik holati sifatida namoyon bo‘ladi. Sodiq piching, kinoyadan qanchalik yiroq bo‘lmisin bu badfe’l xotiniga faqat shu orqali qarshi gapira oladi, faqat shu bilan uni jazolay oladi. Shuningdek, romanda narsalarini obrazli ifodalash, o‘xshatish va qiyoslash bolalar nutqida ko‘proq kuzatilishi Maratning nutqi orqali psixolingvistik jihatdan ochib berilgan : “ -Buvi o‘rikning suyagini chaqib bering.

-Suyak emas, danak bolam...”[7:245] Romanda bunga qator misollar topish mumkin: “Botinkamga oyog‘imni solib qo‘ying”, “ Shapkamning dumini bog‘lab qo‘ying”, “Kitobining paltasini yirtib qo‘ydi”, “ suv charchab qolibdi”.

XULOSA

Muloqotning paydo bo‘lishiga dastlabki omil tabiat va inson o‘rtasidagi aloqadir. Odamzotning ongi, tafakkuridagi o‘zgarishlar borliq bilan aloqaga kirishuvi, tabiat hodisalariga munosabatida namoyon bo‘ldi. Muloqot ijtimoiy faoliyatning ontogenetika paydo bo‘ladigan ilk bosqichidir. Zero inson tili genetik jihatdan mustahkamlanmagan ochiq tizim bo‘lib, u hamisha rivojlanishda, o‘zgarishda bo‘ladi. Muloqotga kirishish ong rivojining eng muhim belgisidir. Insonning shaxs sifatidagi rolini ham uning muloqoti belgilaydi. Shaxsning komillik sifatini ham muloqot yuzaga chiqaradi. Muloqot til va tafakkur uyg‘unligidagi faoliyatdir.

Muloqotning birinchi, axborot-aloqa vazifasi verbal va noverbal kommunikatsiya bo‘lib, til va belgilar tizimi orqali amalga oshiriladi. Imo- ishoralar, ovoz lokalizatsiyalari, mimikalar muloqotda turli psixolingvistik jarayonlarni ifodalaydi. Muloqotning regulatsion- kommunikativ funksiyasi Kommunikantlar xulq- atvorini nazorat qiladi. Muloqot insonlarning maqsadiga, qaror qabul qilishiga ta’sir o‘tkazib, madaniyat va xulq- atvor normalari bilan bog‘lanadi. Emotsional ta’sir etish ham muloqotning vazifasi bo‘lib, turli- tuman emotsional- ruhiy holatlar muloqot bilan birga paydo bo‘ladi. Inversiya, ritorik so‘roq, pauza, urg‘u kabilar og‘zaki muloqotda ta’sir etish funksiyasini bajaradi. Muloqotda bitta tovush, bitta belgi ham suhbатdoshlar maqsadi uchun xizmat qiladi. Shaxsning ruhiyatidagi har qanday o‘zgarish, avvalo, nutqida aks etadi, shuning uchun psixolingvistika nutqiy faoliyat nazariyasi bo‘lib, muloqot va nutq faoliyatini tadqiq etadi.

Bugungi kunda psixolingvistik tahlillar badiiy asar qahramonlari, ular nutqidagi psixik munosabatlar va shu munosabatlarni ifodalovchi vositalar orqali ham amalga oshirilmoqda. Tilshunoslikda ushbu sohada qilinishi kerak bo‘lgan tadqiqotlar hali talaygina. Kelajakda psixolingvistik tadqiqotlar tilshunosligimiz xazinasini boyitishi, shubhasiz.

Shuhrat “Oltin zanglamas” romanida har bir qahramon psixolingvistikasini mohirona ochib bera olgan. Asardagi har bir muloqotda inson ongi-shuuri, ruhiyati sezilib turadi va nutqiy faoliyatining psixologik mexanizmlari uchun muhim voqeliklar tasvirlanadi. Asarda Sodiq, Mirsalim, Dilovarxo‘ja, Qodir va Azizaning taqdiri turli psixologik muloqot jarayonlarida ko‘rsatilgan. Asar bosh qahramoni – Sodiqning insoniy sifatlari uning har bir so‘zida, muloqotida, harakatida seziladi. U chinakam “oltin” - mard, jasur va halol inson. Yozuvchining mahorati bu dunyoda xato va nuqsonlarsiz, mukammal yaxshi inson bo‘lmasligini, hayotda har kim ham adashishi mumkinligini aynan Sodiq misolida psixolingvistik yo‘sinda ochib bera olgan. Musharrafning kayfi borligini bilib ham indamaganligi, uning injiqliklariga vaqtida chek qo‘ymaganligi Sodiqdagi muloyimlilik tabiatini ko‘rsatib, haddan ortiq muloyim bo‘lish kishini mas’uliyatsiz qilishi va nazoratni yo‘qotishi mumkin, degan fikrni isbotlaydi. Shukurovga qilgan munosabatidan unda qattiqqo‘llik ham shubhasiz borligini ko‘ramiz, ammo buni vaqtida (Musharrafga nisbatan) qo‘llamaganidan Sodiqni ayblaymiz. Har bir insonda nafs borligi, uni yengish mushkulligi Musharrafga bo‘lgan hislari orqali ochib berilsa, nafshi yenguvchi kuch haqiqiy sevgi ekanligi Jannat obrazi orqali isbot qilinadi. Sodiqdagi sabrlilik uzoq yillar farzandsiz bo‘lsa-da buni bildirmay yashashidan, shukr qilishidan ayon bo‘lsa, Musharrafni uchratgach, unga tezda uylanishi buning aksini ko‘rsatadi. Sodiqdagi insonlarga nisbatan hurmat va mehr Ikrom ota bilan bo‘lgan suhbatda sezilsa, fashistlarga bo‘lgan, tuxmatchilarga bo‘lgan nafrati ham shunday ochiq tasvirlanadi. Sodiqdagi eng yuksak xislataliyjanoblik, chunki u Dilovarxoja qanchalik dushman bo‘lmisin, Chuxanov qanchalik nohaqliq qilmasin, ularni kechiradi. Sodiqning sodda, ishonuvchanligi Mirsalim bilan muloqotlarida tabiiy tarzda ochib berilgan. Insoniy tuyg‘ulardan yiroq, ikkiyuzlamachi, soxta kishilarning azal oqibat xoinlik qilishlari Mirsalim va Dilovarxo‘ja taqdirida ochib berilsa, qalbida muhabbat bo‘lgan, vafodor va mard insonlar hamisha g‘olib bo‘lishlari Qodir va Aziza obrazlarida tasvirlangan. Asarda Adolat xola obrazidagi maqol, ibora va o‘xshatishlar “o‘zbek onasi”ning xarakterini ochib berishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Ushbu romanda muloqot xulqi, muloqot madaniyati va muloqotning psixolingvistik roli nihoyatda sof, tabiiy va ishonarli qilib tasvirlangan.

-Shuning formasi menga kerak edi, dedi u shtab boshlig‘iga va maqsadini aytib berdi. Sodiqning rejasi qiziqchilikka o‘xshab, shtab boshlig‘ining kulgusini qistadi.

Lekin u “ishonchi bordirki, dadil kirishyapti” degan fikrga keldi. -Egnidan yechib olasizmi? Irganmaysizmi? qo‘li iflos narsaga tegib ketgan kishiday ijirg‘anib dedi shtab boshlig‘i. -Zarur bo‘lgandan keyin iloj qancha! Kishilar dori bo‘ladi deb ilonning qusug‘ini yutgan ekan. Shtab boshlig‘i bu jo‘yali javobdan yana kulib dedi:

-Urushgacha kim bo‘lgansiz? Sodiqning yuragi orqasiga tortib ketdi. - O‘qituvchi,- bo‘shashib dedi u. – Sirkda qiziqchi ekansizmi debman.[7:401]

Ushbu muloqotdan Sodiq kabi insonlarning bu dunyoda nihoyatda kam ekanligini ko‘ramiz. O‘sha damda Vatan manfaati yo‘lida dushman formasini kiyib, bosqinchilar oldiga dadil borishdan zarracha qo‘rqlaydigan inson faqat “qiziqchi” bo‘lishi mumkin edi. “Kishilar dori bo‘ladi deb ilonning qusug‘ini yutgan” da Sodiqday jasur insonlar xalq manfaati yo‘lida fashist formasini kiya olmasligi mumkinmi? Har qanday dori tanaga shifodir. Vatanning vujudi esa xalq. Sodiq shu xalqni qutqarsa, Vatani omon qoladi. Sodiqning bu yo‘lda yuragi aslo orqaga tortmaydi, u aslo bo‘shashmaydi. Ammo tuhmat, nohaqlik qurboni ekanligi, qochoq ekanligi uni bo‘shashtiradi. Ammo Sodiq qanchalar nohaqlik va xo‘rlik iskanjasida qolmasin, hech qachon vatanini, xalqini ayblamaydi, hech qachon iymonini, sadoqatini yo‘qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma .-T, “ Turon-Iqbol”,2006.
2. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi.-T, “ Turon-Iqbol”,2006.-b.5.
3. Mo‘minov S. Muloqot mezoni. –Toshkent: “Yangi asr avlod”, 2004.
4. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari//Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent-2000.
5. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari//Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent-2000.-b.51.
6. Psixolingvistika. O‘quv- uslubiy majmua. –Toshkent: Universitet, 2011.
7. Shuhrat. “Oltin zanglamas” roman. –Toshkent: “Zukko kitobxon”, 2023.
8. Usmonova Sh. Psixolingvistika. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Universitet,2015.
- Фон Гумбольдт В. Избранные труды по языкоznанию –М. 1984. –c.82.